

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
“Texnologiyalar va jihozlar” kafedrası

*“Metrologiya, standartlash va
sertifikatlash asoslari” fanidan*

TAQDIMOT

MAVZU: Standartlar. mahsulot sifatini ng o’sishida
standartlashtirishning roli

Bajardi:

Qabul qildi:

Standartlash elementlari standart so'zi bo'lmagan paytdan boshlab ma'lum bo'lgan. Bunga misol qilib miloddan oldingi qurilish namunalari ishlarida tosh o'ymalarini kerakli o'lchamlarga keltirish dalil bo'la oladi.

Evropa ishlab chiqarishda standartlash birinchi marta XVI-asr o'rtalarida pushkalar uchun snaryadlar tayyorlashda qo'llanilgan. XVIII-asrda standartlash kemalar qurishda, qishloq xo'jaligida, ishlab chiqarishda, mahsulotlariga qo'llanilgan. XIX- asr boshlarida temir yo'lining ochilishi standartlashning rivojlanishiga yangi impuls bo'lib xizmat qildi. Bunda vagonlarning rangi, balandligi, g'ildiraklarning diametri va boshqa elementlar standartlashtirilgan edi.

Standartning vazifasi me'yorlarni joriy qilish, standart mahsulot ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi orasida bog'liqlikni hosil qiladi. Standart moddiy balansni va xalq xo'jaligida proporstiyalikni ta'minlaydi.

Standart so'zining o'zi ingliz tilidan olingan bo'lib," Stonde", ya'ni norma, namuna, o'lchov degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun standart deganda biror me'yorning ishlab chiqish va joriy qilish tushuniladi.

Standartlashtirish bu biron sohaning faoliyatini tartibga solish uchun biron qoida yoki qonunni o'rnatish va joriy qilish. Standartlash fan va texnika rivojlanishiga, hamda ilg'or omilkorlikka asoslanadi. Standartlash faqat hozirgi rivojlanishini emas, balki kelgusi rivojlanishni ham belgilaydi. Bu rivojlanish fan va texnika progressi bilan uzluksiz bog'lanishi kerak.

Elektrodrigatel-texnologiya uskunalar bilan og'irlik ko'tariladigan qurilmalar bilan va bog'lik shunga asoslangan holda quyidagi talablarga javob berish kerak.



- ✧ Ishlab chiqarish va ekspluatatsiya talablariga javob beradigan rastional gradatsiya sistemasi bo'lishi kerak.
- ✧ Sonlari ko'payishi va kamayishida cheksiz bo'lishi kerak.
- ✧ Har bir son qatorida o'nlik va kasr sonlari ham kiritiladi.
- ✧ Oddiy va yodda tutishi oson bo'lishi kerak.

Hozirgi vaqtda standartlanishning nazariyasi prinstipi va metodlari tashkil qilinmoqda. Ishlab chiqarishda joriy qilishda quyidagi prinstiplarini aytish mumkin:



- ❧ Takrorlanish – shunday ob’ektlarki, jarayonlar faoliyat turi va umumiy xususiyatga ega bo’ladi.
- ❧ Shartliligi – standartlanishning qonun ishlab chiqarish xarakterlarini aniqlab beradi.
- ❧ Variantliligi – standartlash ob’ektiga kiradigan standart elementlarining xilma-xilligini minimum rastionalligini ta’minlaydi.
- ❧ Sistemaliligi – standartni element sistemasi deb qarab standart sistemasini tuzishni asosladi.
- ❧ O’zaro almashishliligi – buni texnikada joriy qilinadi. Biror qurilma yoki mashinada detalining biror o’zgarishsiz boshqa xuddi shunday detal bilan almashinishi.

- 1946-yil 14-oktyabrda Birlashgan millatlar tashkiloti standartlarni koordinastiyalash ko'mitasining kengashida standartizastiya bo'yicha xalqaro tashkilotni (ISO) tashkil etish qarori qabul qilinadi.
- ISO ning asosiy vazifasi xalqaro savdo sotiqqa va ilmiy-texnik progressiga ko'maklashish maqsadida xalqaro standartlarni ishlab chiqarish.
- Xalqaro standartizastiya o'lchash birliklari va terminologiyasidan tortib, hisoblash mashinasi va uchuvchi apparatlar xarakteristikasigacha o'z ichiga oladi.
- ISOning erishishlaridan biri MKS, SGS, MKGSS o'rniga xalqaro birliklar sistemasi SI sistemasining kiritilishidir.

Standartlarni uchta darajasini ajratadilar:



- ❧ Davlat standartlarini xalq xo'jaligini barcha korxonalarni, tashkilot va muassasalari qo'llashi shart. Bunaqa standartlarni asosan ommaviy va ko'p seriyali ishlab chiqariladigan mahsulotlarni, shuningdek tarmoqlararo ob'ektlarni me'yor, qoida, talab, tushunchalarini davlat standart markazi tasdiqlaydi, kuchga kiritadi, o'zgartiradi va bekor qiladi.
- ❧ Tarmoq standartlari va shu tarmoqni barcha korxona va muassasalari uchun, shuningdek uni mahsulotini ishlatadigan boshqa tarmoqlarni korxona va tashkilotlari uchun majburiy. Bu standartlarni tarmoqlarga qarashli Vazirliklar tasdiqlaydi, kuchga kiritadi, o'zgartiradi va bekor qiladi. Tarmoq standartlari davlat standartlarini rivojlantirishi yoki cheklashi mumkin, agarda oxirgilarni asosiy talablari buzilmagan bo'lsa.
- ❧ Korxona standartlari faqat ma'lum korxona uchun majburiy. Ularni faqat shu korxonada qo'llanadigan ob'ektlar ko'zda tutadilar.

Standartlar bilan birga, standartlash sohasida ko'pgina sanoat tarmoqlarida keng qo'llanadigan me'yoriy-texnik hujjat bu texnik shartlar. Texnik shartlarda mahsulotga, uni ishlab chiqarishga va nazoratiga qo'yiladigan barcha talablar bo'lishi shart. Bu shartlarni to'qimachilik mahsulotlar uchun engil sanoat vazirligi tasdiqlaydi.

Keyingi yillarda **to'qimachilik** mahsulotlari standartlash sohasida texnik tasvirlar keng qo'llanilyapti. Ularni bitta aniq mahsulot namunasi (modeli) uchun tuzadilar va shu turdagi mahsulotda davlat, tarmoq standarti yoki texnik shart bor bo'lsa. Texnik tasvirda mahsulot namunasi (modeli)ni ishlab chiqarish jarayonini ayrim parametrlariga talablar belgilanadi.

Standartlashning asosiy maqsadlari quyidagilar:



- ❧ Texnik taraqqayotni jadallashtirish, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- ❧ Mahsulot sifatini yaxshilash va uning optimal darajasini ta'minlash;
- ❧ Jahon bozori talablariga javob beradigan, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish shartlarini ta'minlash;
- ❧ Halq xo'jaligini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish;
- ❧ Mahsulotni ishlab chiqarish va loyixalash sohasida ixtisoslashni rivojlantirish;
- ❧ Ishlab chiqarish fondlarini rastonal ishlatish, mehnat va moddiy resurslarni tejash;
- ❧ Ishchilarning zmehnat muhofazasini va aholi sog'ligini ta'minlash;
- ❧ Halqaro iqtisodiy, texnik va madaniy hamkorlikni rivojlantirish.

Standartlashning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ❧ Sifat xarakteristikalarini kompleks standartlash asosida tayyor mahsulot, xom-ashyo, materiallar, yarimfabrikatlar va to'ldiruvchi buyumlar sifatiga talablar belgilash;
- ❧ Buyumlarni vazifasi va ishlatish sharoitlariga qarab mahsulot sifat ko'rsatkichlari umumiy tuzilishini, nazorat va tekshirish usul va vositalarini aniqlash;
- ❧ Ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizastiyalash va avtomatlashtirish, ishlab chiqarishni iqtisodlashni muhim sharti sifatida sanoat mahsulotlarini, xususan mashina, asbob va uskunalarni agregatlashtirishni rivojlantirish;
- ❧ Xalq iste'moli mollari sifatini oshirish, ularning assortimentini yaxshilash va kengaytirish, shuningdek optimal sifatdagi mahsulotni ta'minlash uchun loyixalash va ishlab chiqarish sohasida qoida, talab va usullarni belgilash;
- ❧ Davlatda bir xil va to'g'ri ulchovlarni ta'minlash, o'lchov birliklarida davlat etalonlarini tuzish va takomillashtirish;
- ❧ Barcha mahsulotlarni xujjatlalashtirish, sinflashtirish va kodlash, shuningdek texnik-iqtisodiy ma'lumotlarni yagona tizimlarini belgilash;
- ❧ Xalq xo'jalik tarmoqlarida, shuningdek fan va texnikaning eng muhim sohalarida yagona ibora, belgi va o'lchamlarni belgilash;
- ❧ Standartlash bo'yicha halqaro tashkilotlar ishida qatnashgan holda tashqi savdo uchun yaxshi sharoitlarni yaratish.



*Q*E`TIBORINGIZ UCHUN
RAXMAT!